O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»
Qarshi davlat texnika universiteti rektori
Sh.Q.Nematov _____
“__” _____2026-yil

08.00.04 -“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi va mustaqil tadqiqotchilikka suhbat asosida qabul qilinuvchi talabgorlar uchun -“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha imtihon

DASTURI

Qarshi-2026

Dastur Qarshi davlat texnika universitetining 2026-yil 28-avgustdagi №1-sonli kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

Dastur Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasining 2026-yil 26-avgustdagi № 1-sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: i.f.d., prof. S.N. Xamrayeva
i.f.d., prof. R.X. Ergashev
i.f.f.d., dots. N.A.Ochilova

Taqrizchilar:

Erkayeva G.P. – Qarshi davlat universiteti, i.f.n., professor

Fayziyeva SH.SH. – Qarshi davlat texnika universiteti “Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasi professori, i.f.n.

Kirish

Mazkur dastur “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyat rivojini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish bo‘yicha eng muhim ustuvor yo‘nalishlar asosida tayyorlangan.

Dastur quyidagi qarorlar, yo‘nalishlar va masalalarni qamrab olgan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2021 yil 3 fevraldagi “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar tizimi hamda zamonaviy xizmatlar ko‘rsatishni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi PF-6159-sonli Farmoni, 2020 yil 5 oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli Farmoni, 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi” PF-5853-sonli Farmoni, 2019 yil 17-iyundagi “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5742-sonli Farmoni hamda 2020 yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini 2020-2030 yillarda rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-sonli Farmonlarii hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar.

Mazkur dasturni tuzishda quyidagi fanlar materiallari asos qilib olingan:

1. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
2. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
3. Qishloq xo‘jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti
4. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi
5. Agrar siyosat va qishloq xo‘jalik bozorlari

Talabgor ko‘rib chiqilayotgan jarayonlarga ta’sir etuvchi omillarning o‘zaro dialektik bog‘liqligi va mohiyatini to‘la anglab yetishga qaratilgan bilimlar, qoidalar va ilmiy nazariyalar bo‘yicha savollarni chuqur o‘rganishni rejalashtirishi lozim.

I. ASOSIY QISM
QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI

Agrar soha tarmoqlarida iqtisodiy islohot jarayonlarining nazariy asoslari, agrar munosabatlar va qishloqni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni Farmonining mazmuni, mohiyati va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti tushunchasi va metodlari. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha iqtisodiy islohotlar. Agrosanoat majmuining rivojlanish ko‘rsatkichlari. Qishloq xo‘jaligining joriy yildagi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish tarkibi. Agrosanoat majmuining tashkiliy-institutsional tarkibi. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Agrosanoat majmuining tarmoq tarkibi. Agrosanoat majmuining ishlab chiqarish infratuzilmasi. Agrosanoat majmuining ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar holati, tarkibi va rivojlanish tendensiyalari. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va shakllari. Agrosanoat majmuiga kiruvchi tarmoqlar va sohalar o‘rtasidagi o‘zaro xo‘jalik shartnomalari, ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol munosabatlarini rivojlantirish. Agrosanoat majmui tarmoqlarida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari. Agrosanoat majmuida marketing tizimini rivojlantirish. Agrosanoat majmuida boshqarish konsepsiyalari (menejment) va uslubiyoti. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rejalashtirish. Agrosanoat majmui faoliyatining pirovard natijalari: mazmuni, aniqlash metodlari, ko‘rsatkichlari va samaradorligini oshirish yo‘llari. Jahon bozori konyunkturasining keskin yomonlashuvi, inqirozga qarshi choralar dasturi amalga oshirish sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish. Agrar tarmoqni modernizatsiyalash: yo‘nalishlari, mexanizmlari, tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlaridan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasining mazmuni, mohiyati va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

Qishloq xo‘jaligi, unga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar va qayta ishlash tarmoqlarida moddiy-texnik ta’minot, lizing, ijara munosabatlarini rivojlantirish. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida zamonaviy texnika va yuqori texnologiyalarni joriy etish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari. Qishloq xo‘jaligida raqobatbardosh, sifatli va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida resurs tejovchi texnologiyalarni qo‘llashning asosiy mazmuni va yo‘nalishlari. Agrosanoat majmuini rivojlantirish va ekologiya. Qishloq xo‘jaligida intensiv texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish. Respublika iqtisodiy mintaqalarida, shu jumladan Orolbo‘yi mintaqasida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish istiqbollari. Qishloq xo‘jaligida turli mulkchilik shaklidagi subektlar faoliyatida statistik hisobot va buxgalteriya hisobi, auditni yuritish xususiyatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari.

Qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining mulkiy huquqlarini himoyalash, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va mahalliy agrar bozorni himoya qilish metodlari. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlanishining mintaqaviy jihatlari. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ixtisoslashtirish, ishlab chiqarishni joylashtirish va tarmoqlar o‘rtasidagi nisbat. Paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi va uni oshirish yo‘nalishlari.

Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlari

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurslar sig‘imi va uni kamaytirish yo‘nalishlari. Qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi. Qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarini rivojlanishi va mulkka egalik qilish qarashlarini shakllantirish. Agrar soha tarmoqlarida xususiy mulkchilikning rivojlanishi. Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi turli xo‘jalik subektlari: fermer xo‘jaligi, agrofirma xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi va boshqa xo‘jaliklar o‘rtasidagi nisbat. O‘zbekistonda dehqon xo‘jaliklarining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari va rivojlanish istiqbollari. Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish sharoitida dehqon xo‘jaliklari rivojlanishini rag‘batlantirish masalalari. Fermer va agrofirma xo‘jaligi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida. Qishloqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aholi bandligini oshirishga va qishloq hududlarini rivojlanishiga ta’siri. Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subektlarning samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari, holati va rivojlantirish yo‘nalishlari.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlashni baholash

Agrar sohaning istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda yer munosabatlarini takomillashtirish zaruriyati. Qishloq xo‘jaligida yer fondidan foydalanishda boshqaruv. Agrar sohada yer va suv resurslarini boshqarish, optimal yer taqsimoti va undan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni noqishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun ajratishda qishloq xo‘jaligining ustuvorligini ta’minlash mexanizmi. Agrar siyosatni samarali amalga oshirishda yer islohoti va optimal yer taqsimotining o‘rni. Yerdan foydalanish huquqini kafolatlash, xo‘jaliklarni boshqarish samaradorligini oshirish hamda sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish. Yer uchastkalarini ikkilamchi ijaraga berish.

Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida yerlarni iqtisodiy (meyoriy) baholashning nazariy, uslubiy va amaliy masalalari bo‘yicha tadqiqotlarni olib borish. Fermer (dehqon) xo‘jaligi hududida yer tuzish, yer kadastri va monitoringini yuritish. Yerdan foydalanish samaradorligini aniqlashda yer tuzish, yer kadastri va monitoringi ma’lumotlaridan samarali foydalanish uslublari. Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. Transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish. Mamalakatda suv resurslarini barqaror boshqarishda mintaqaviy hamkorlik masalalari. Suv resurslarini barqaror boshqarish va qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirishda resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash. Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun suv yetkazib berish xarajatlarini qoplash mexanizmi. Suv siyosatini tartibga soladigan zarur normativ-huquqiy baza ishlab chiqilishi va suv resurslarini boshqarishning uyg‘unlashgan uslublari joriy qilinish masalalari.

Agrar soha tarmoqlari va qishloq xo‘jalik sohalari uchun yer va suv taqsimotida tejamkor uslublardan foydalanish. Yer resurslaridan samarali va oqilona foydalanishni rag‘batlantirishning iqtisodiy mexanizmlari. Servitut – agrar sohani modernizatsiyalashda yerdan foydalanuvchi subektlarning barqaror huquqiy-iqtisodiy faoliyatini ta’minlovchi muhim omili. Hududlarda aholini joylashtirish, hududlarni rejalashtirish sxemalari va bosh rejalari bilan bog‘liq chora-tadbirlar. Qishloq joylarining tabiiy-iqlim sharoiti va relefini, yurtimiz hududlarining ijtimoiy-demografik xususiyatlarini hisobga olishning yer va suvdan foydalanish samaradorligiga ta’siri.

Qishloq xo‘jaligida mavjud resurslardan foydalanishni boshqarish

Davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirish. Agrosanoat majmuidagi davlat organlarining funksiyalari asosan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga yo‘naltirilgan va ularning ayrimlari xususiy sektorga o‘tkazilishi. Qishloq xo‘jaligining resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish

yo‘llari. Suv xo‘jaligi holati, tarkibi va rivojlanish tendensiyalari. Qishloq xo‘jaligi rivojlanishida irrigatsiya va melioratsiya tizimining o‘rni va ahamiyati. Markaziy Osiyoda suv va gidroresurslardan foydalanish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Sug‘orish texnologiyasini takomillashtirish yo‘nalishlari. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish fondlari, asosiy va aylanma mablag‘lar. Ularning samaradorligini oshirish usullari. Amortizatsiya fondi. Qishloq xo‘jaligida foyda va daromadlar hamda ularning taqsimlanishi. Qishloq xo‘jaligida kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tashkil etish. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslaridan foydalanish holati va mehnat unumdorligi. Qishloq joylarida mehnat resurslari. Qishloq xo‘jaligidagi texnologik jarayonlarni boshqarishni tashkiliy-iqtisodiy jihatlari. Agrar soha korxonalari va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini boshqarish strategiyasi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining qurg‘oqchilik, issiqlik va zararkunandalarga chidamli yangi navlarini yaratishda biogenetik fondni asrash va ulardan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmlari. Hududlarda bioxilmaxillikni asrashdagi iqtisodiy-tashkiliy mexanizmlar. Mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo‘jalik yuritish subektlari faoliyatini samarali boshqarish – agrar sohaning istiqboldagi rivojlanishining muhim omili. Qishloq aholisining qulay va munosib hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlarni o‘z ichiga olgan zamonaviy va obod qishloqlarni barpo etishning qishloq xo‘jaligida mavjud resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’siri.

Agrar sohada narx siyosati va marketing munosabatlari. Narx siyosatini takomillashtirish.

Qishloq xo‘jaligida bahoni erkinlashtirish va davlat buyurtmasini bosqichma-bosqich kamaytirish. Qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari baholari o‘sishi sur’atlari o‘rtasidagi nomutanosiblik va uni bartaraf etish yo‘llari. Qishloq xo‘jaligida baholarni tartibga solish. Agrar sohada moliya-kredit siyosati va uni takomillashtirish yo‘llari. Qishloq xo‘jaligini moliyalashtirish muammolari. Davlat tomonidan agrosanoat majmuini moliyalashtirish holati va istiqbollari. Agrosanoat majmuidagi amalga oshirilayotgan soliq siyosati xususiyatlari va uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari. Qishloq xo‘jaligi korxonalarini soliqqa tortish tizimini isloh qilish: holati, muammolari va yechimlari. Soliqqa tortish borasida agrar soha korxonalariga, shu jumladan qishloq xo‘jaligi korxonalariga berilgan imtiyozlar va soliq yuki, yagona yer solig‘ini hisoblash uslubiyoti. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash: dotatsiyalash va subsidiyalash amaliyoti. Maqsadli moliyalashtirish. Moliyalashtirish usullari, tartiblari va qonuniyatlari. Qishloq xo‘jaligida investitsiya muhiti holati va uni yaxshilash yo‘llari. Qishloq xo‘jaligini investitsiyalash xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligiga jalb qilinayotgan tashqi va ichki investitsiyalar nisbati va ulardan foydalanish samadorligini belgilovchi ko‘rsatkichlar tizimi. Qishloq xo‘jaligiga

investitsiyalarni jalb etishda tavakkalchilik. Qishloq xo‘jaligida innovatsiya va innovatsion jarayonlarni boshqarish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga baho shakllanishida mehnat resurslarining o‘rni va ta’siri, xarajatlar tarkibida ish haqi fondining ulushi.

Agrobankning tashkil etilishi va qishloqda kichik biznes, xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini moliyalashtirish. Qishloqqurilish banki va qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlanishi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozori va marketing xizmatidan foydalanish samaradorligi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorini rivojlantirishning nazariy asoslari. Qishloq xo‘jaligida mahsulotni sotishga tayyorlash va sotish tizimini rivojlantirish. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bozor talablari asosida narxni shakllantirish va ularni ayiraboshlash. Tayyorlov va dehqon bozoriga tayyor mahsulotlarni sotishga tayyorlash, saqlash va transportirovka qilish. Tovarni DAST bo‘yicha tayyorlash va markirovka qilish. Tovarni ishlab chiqarish bahosidan tashqari tovarlilik darajasini oshirib sotish. Eksport va import imkoniyatlarini yaratish. Mahsulotni sotish bo‘yicha hukumat qarorlarida ko‘zda tutilgan masalalar. Mahsulotni ishlab chiqarishdan iste’molchiga yetkazib jarayonida marketing xizmatini tashkil qilish va takomillashtirish yo‘llari. (Mahsulotni ekishdan to yig‘ishtirib olguncha marketing xizmati va uni yaxshilash yo‘llari.)

Agrar soha tarmoqlarining barqarorligini ta’minlash va eksportga chiqarish integratsion tizimida kooperatsiya va agroklasterlarni tashkil etishni takomillashtirish.

Qulay agrobiznes muhitini va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish. Agrar soha mahsulotlarini eksport qilishning holati, tarkibi va rivojlanish istiqbollari. Paxta tolasini eksportdagi o‘rni. Agrosanoat majmuasida tarmoq, tarmoqlararo uyushma va assotsiatsiyalarni, agrofirma va agrokombinatlarni, agro oziq-ovqat kooperatsiya va xoldinglarni tashkil etishning xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni modernizatsiya qilishning raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va eksport qobiliyatini oshirishga ta’sirini baholash.

Agrar sohada ishlab chiqarish va kooperativlar tizimi. Qishloq xo‘jaligida xo‘jaliklararo kooperatsiyalarning rivojlanishi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, saqlash va sotish texnologik tizimida o‘zaro uyushgan holda faoliyat olib boruvchi fermer va dehqon xo‘jaliklari, qayta ishlash sanoati korxonalari, saqlash, logistika va sotish infratuzilmalarining yagona maqsad yo‘lida birlashgan tuzilmasi. Yerni haqiqiy egasiga berish, ayniqsa, mahsulot yetishtirishdan tortib, uni sotishgacha bo‘lgan agrobiznesning yaxlit zanjirini o‘z ichiga qamrab olgan klaster modelini va kooperatsiya tizimini to‘liq yaratish.

Agroklasterlarni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribalarini o‘rganish. Respublikamizda ASM rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mintaqaviy agrosanoat klasterlarni tashkil etish. Paxta – to‘qimachilik klasterlarining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. G‘allachilik, meva-sabzavotchilik, parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va pillachilik klasterlarini tashkil qilish.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tashkil etish va uning samaradorligini oshirish yo‘llari

Qishloq xo‘jalikda iqtisodiy munosabatlar tizimi to‘g‘risida tushuncha. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayonining mohiyati, mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish, moliyaviy, mulkiy munosabatlar. Mulk tushunchasi va turlari. Qishloq xo‘jaligi bilan ta’minot va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar. Shartnoma to‘g‘risida umumiy tushunchalar. Shartnomani tuzishga oid qonun xujjatlari: Fermer xo‘jaligida shartnoma turlari, korxonani boshqarishda shartnomaniig roli, kontraktatsiya shartnomasini rasmiylashtirish xususiyatlari. Shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi xuquqiy va meyoriy hujjatlar. Tayyorlov korxonalari bilan o‘zaro munosabatlar. Moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan o‘zaro munosabatlar.

Qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy faoliyati to‘g‘risida tushuncha. Iqtisodiy faoliyatning turlari. Qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatida: muvofiqlashtiruvchi aloqalar, biznes va tadbirkorlikni yuritish, biznes reja va uning ahamiyati, bank va kreditdan foydalanish, davlat ehtiyoji uchun mahsulot yetishtirishni kreditlash, xo‘jalik faoliyatini sug‘urtalash. Soliq va soliqqa tortish, xo‘jalik sudlari. Qishloq xo‘jalik korxonalarini iqtisodiy faoliyatidagi korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni tashkil etish yo‘llari. Qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy faoliyatining ishlab chiqarishni rivojlantirishdagi o‘rni va iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. Iqtisodiy tahlilning ahamiyati va vazifalari, iqtisodiy tahlilning usullari, qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish zaruriyati, qishloq xo‘jalik korxonalarining iqtisodiy faoliyatini, mahsulot yetishtirish va sotish, moliyaviy holatini tahlil qilish yo‘llari. Qishloq xo‘jaligi faoliyatini yuksaltirish chora tadbirlarini ishlab chiqish yo‘llari.

JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR

Jahon xo‘jaligi integratsiyalashuvining O‘zbekiston agrar sohasi iqtisodiyotiga ta’siri

Umumjahon savdo tashkilotiga (UST) a’zo bo‘lishning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga ta’siri. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi rivojlanishining oziq-ovqat sanoati tarkibi va rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liqligi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning hududiy

jihatlari. O‘zbekiston Respublikasini USTga kirishida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘rni. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi oqibatlarining O‘zbekiston agrosanoat majmui iqtisodiyotiga ta’siri. O‘zbekistonning jahon savdo tashkilotiga kirish bosqichlari. O‘zbekiston agrosanoat majmui va jahon bozoriga integratsiyalashuv jarayoni. Markaziy Osiyo davlatlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish jarayonidagi o‘zaro bog‘liqliklar. Agrar tarmoqda proteksionizm siyosatini amalga oshirish xususiyatlari. Agrar soha mahsulotlari bilan eksport va import qilish operatsiyalari yo‘nalishlari va xususiyatlari. Eksport tizimini takomillashtirish masalalari.

QISHLOQ XO‘JALIGI INFRATUZILMASI IQTISODIYOTI

Qishloq xo‘jaligida ilm-fan, ta’lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish

Ilmiy-tadqiqot, ta’lim va axborot-maslahat xizmatlarini ko‘rsatishni o‘zaro bog‘laydigan qishloq xo‘jaligiga oid bilim va axborotlarni tarqatish bo‘yicha samarali tizim tashkil etish masalalari. Ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning samarali mexanizmlari va davlat tomonidan moliyalashtirilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy qilish masalalari. Qishloq xo‘jaligi ekinlari mahalliy navlarining import qilinadigan qimmat va mahalliy sharoitlarga moslashtirish. Ta’lim muassasalarida o‘quv va kasbiy tayyorgarlik kurslari, ta’lim tizimi, shakli va o‘qitish usullari. Mehnat bozori talablarini o‘rganish va yangi mutaxassisliklarni joriy etish uchun tarmoqlararo va idoralararo muvofiqlashtirish tizimini yaratish. Mamlakatda qishloq xo‘jaligiga oid bilim va axborotlar tarqatish uchun zamonaviy xususiy tuzilmalarni yaratish masalalari. Qishloq xo‘jaligi, oziq-ovqat ta’minoti, ta’lim, malaka oshirish va axborot-maslahat xizmatlari sohalarida zamonaviy, integratsiyalashgan va moslashuvchan tizimni yaratishning ustuvor yo‘nalishlari. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, turli kasallik va zararkunandalarga chidamli, sifatli bozor talabiga javob beruvchi navlarini yaratish va joylashtirish. Seleksiya va urug‘chilik tizimini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini ta’minlash. Biotexnologiyalar va resurs tejovchi texnologiyalarni joriy etish. Chorvachilikda zooveterinariya va naslchilik ishlarini rag‘batlantirish. Chorva mollarini yuqumli kasalliklarga qarshi vaksinatsiya qilish va uning inson sog‘ligi uchun ta’sirini baholash. Yuqumli kasalliklarning inson uchun xavfini kamaytirish. Agrar tarmoqda fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish. Fermer va dehqon xo‘jaliklariga turli maslahatlar berish, ilmiy ishlanmalarni joriy etish va bunda konsalting xizmatlarini rivojlantirish yo‘llari.

MEHNAT IQTISODIYOTI VA SOTSIOLOGIYASI

Qishloq xo‘jaligida mehnat bozori va bandlik

O‘zbekistonda mehnat bozorining o‘ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligida bandlik masalalarini hal etish muammolari. Qishloqda kasanachilikni rivojlanish xususiyatlari. Qishloqda ijtimoiy-siyosiy tadbirlarni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari. Qishloqda ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish va aholini ijtimoiy himoya qilish xususiyatlari. Qishloq aholisining turmush sharoitlarini va sifatini yaxshilash yo‘llari. Agrar soha korxonalarini intensiv rivojlanish yo‘liga o‘tkazishning nazariy va amaliy muammolari.

Qishloq xo‘jaligida mehnatni moddiy rag‘batlantirish tizimi va ish haqining o‘rni. Tarmoqda band bo‘lganlar daromadi va uning bandlik darajasiga bog‘liqligi. Qishloq joylarda ishchi kuchi migratsiyasi tendensiyalari. Chorvachilik tarmog‘ining aholi bandligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati. Infratuzilma obektlarini rivojlantirishning bandlikni ta’minlashdagi roli. Qishloq xo‘jaligida bandlikni ta’minlash muammolari. Qishloq aholisining turmush sharoitlarini va sifatini yaxshilash yo‘llari. Qishloq joylarida aholi bandligini ta’minlash, daromadlarini yanada oshirish va hayot sifatini yuksaltirish chora-tadbirlari. Qishloqda kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirishning qishloq xo‘jaligida mehnat bozori va bandlikni ta’minlashga ta’siri.

AGRAR SIYOSAT VA QISHLOQ XO‘JALIK BOZORLARI

Agrar munosabatlarning nazariy asoslari va ularni tartibga solish metodlari

O‘zbekistonda agrar sohani isloh etishning institutsional asoslari. Agroiqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bosqichlari. Agrar sohani rivojlantirishga qaratilgan maqsadli dasturlarni amalga oshirilishi. O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini shakllanishi jarayonida tarmoqlararo va hududlararo o‘zaro samarali hamkorlik nazariyasi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining oziq-ovqat mahsulotlari bozorining shakllanishi, holati, tarkibiy rivojlanish tendensiyalari va istiqbollariga ta’siri. Oziq-ovqat mahsulotlari bahosining shakllanish xususiyatlari. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining jahon oziq-ovqat mahsulotlari bozorlaridagi baholarga ta’siri. O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollarini belgilashda tashqi bozordagi talabning qisqarishini ta’siri. G‘alla bozorining shakllanishi, amal qilishi va rivojlanish bosqichlari, istiqbollari. O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning mezonlari va ko‘rsatkichlari.

Qishloq xo‘jaligi bilan ta’minot va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasidagi shartnomaviy munosabatlar. Shartnoma to‘g‘risida umumiy tushunchalar. Shartnomani tuzishga oid qonun xujjatlari: Fermer xo‘jaligida shartnoma turlari,

korxonani boshqarishda shartnomaniig roli, kontraktatsiya shartnomasini rasmiylashtirish xususiyatlari. Shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi xuquqiy va meyoriy hujjatlar. Tayyorlov korxonalari bilan o‘zaro munosabatlar. Moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan o‘zaro munosabatlar. Dunyoda yuz berayotgan moliyaviy, tabiiy-iqlim va demografik jarayonlarning g‘alla, meva-sabzavot, chorvachilik mahsulotlari bozoriga ta’siri va xususiyatlari.

5. Agrar siyosat va uning yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmonining mazmuni, mohiyati va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

Davlat tomonidan agrar soha, xususan qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va korxonalarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va yo‘nalishlari. Davlat tomonidan agrar sohani moliya-kredit va baho mexanizmlari orqali tartibga solishning nazariy va amaliy asoslari. Agrar soha tarmoqlarida bozor mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirish. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini ta’sirini hisobga olgan holda agrosanoat majmui, qishloq xo‘jaligi korxonalari va tarmoqlarini rivojlanishining ssenariylari. Agrar soha tarmoqlarini texnologik jihatdan zamonaviy qurollantirish, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash jarayonining agrar siyosatni amalga oshirishdagi o‘rni. Qishloqda kasanachilikni rivojlantirish, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish va oilaviy tadbirkorlikni rag‘batlantirishning amalga oshirish chora-tadbirlari. Noqishloq xo‘jaligi korxonalarini tashkil etish va rivojlantirish, mahalla fuqarolar yig‘inlarining mavjud imkoniyatlarini safarbar qilish hamda mahalla fuqarolari, agrar tadbirkorlik, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat organlari o‘rtasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun grant mablag‘lari va investitsiyalarni jalb etishning shaffof mexanizmini ishlab chiqish hamda tajriba tariqasida amalga oshirish. Qishloq hududlarini rivojlantirish milliy dasturini ishlab chiqish.

08.00.04-“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti” ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka kirish imtihon savollari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni Farmonining mazmuni, mohiyati va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasining mazmuni, mohiyati va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5853-sonli Farmonining mazmuni, mohiyati va unda belgilangan ustuvor yo‘nalishlar.

4. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti tushunchasi va metodlari.

5. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni.

6. Dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha iqtisodiy islohotlar.

7. Agrosanoat majmuining rivojlanish ko‘rsatkichlari.

8. Qishloq xo‘jaligining joriy yildagi rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari.

9. Qishloq xo‘jaligida takror ishlab chiqarish tarkibi.

10. Agrosanoat majmuining tashkiliy-institutsional tarkibi.

11. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishda qonunchilik va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish.

12. Agrosanoat majmuining tarmoq tarkibi.

13. Agrosanoat majmuining ishlab chiqarish infratuzilmasi.

14. Agrosanoat majmuining ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi.

15. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar holati, tarkibi va rivojlanish tendensiyalari.

16. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarni modernizatsiyalash, ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari va shakllari.

17. Agrosanoat majmuiga kiruvchi tarmoqlar va sohalar o‘rtasidagi o‘zaro xo‘jalik shartnomalari, ijtimoiy-iqtisodiy ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash va iste’mol munosabatlarini rivojlantirish.

18. Agrosanoat majmui tarmoqlarida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy mexanizmlari.

19. Agrosanoat majmuida marketing tizimini rivojlantirish. Agrosanoat majmuida boshqarish konsepsiyalari (menejment) va uslubiyoti.

20. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishni rejalashtirish.

21. Agrosanoat majmui faoliyatining pirovard natijalari: mazmuni, aniqlash metodlari, ko‘rsatkichlari va samaradorligini oshirish yo‘llari.

22. Jahon bozori konyunkturasining keskin yomonlashuvi, inqirozga qarshi choralar dasturi amalga oshirish sharoitida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni tashkil etish va rejalashtirish.

23. Agrar tarmoqni modernizatsiyalash: yo‘nalishlari, mexanizmlari, tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy asoslari.

24. Qishloq xo‘jaligi, unga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar va qayta ishlash tarmoqlarida moddiy-texnik ta’minot, lizing, ijara munosabatlarini rivojlantirish.

25. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida zamonaviy texnika va yuqori texnologiyalarni joriy etish asosida uning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari.

26. Qishloq xo‘jaligida raqobatbardosh, sifatli va ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantirish.

27. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida resurs tejovchi texnologiyalarni qo‘llashning asosiy mazmuni va yo‘nalishlari.

28. Agrosanoat majmuini rivojlantirish va ekologiya.

29. Qishloq xo‘jaligida intensiv texnologiyalardan foydalanishni rag‘batlantirish.

30. Respublika iqtisodiy mintaqalarida, shu jumladan Orol bo‘yi mintaqasida qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish istiqbollari.

31. Qishloq xo‘jaligida turli mulkchilik shaklidagi subektlar faoliyatida statistik hisobot va buxgalteriya hisobi, auditni yuritish xususiyatlari va ularni takomillashtirish yo‘llari.

32. Qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish.

33. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining mulkiy huquqlarini himoyalash, mulkiy munosabatlarni takomillashtirish va mahalliy agrar bozorni himoya qilish metodlari.

34. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini rivojlanishining mintaqaviy jihatlari.

35. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida ixtisoslashtirish, ishlab chiqarishni joylashtirish va tarmoqlar o‘rtasidagi nisbat.

36. Paxtachilik, g‘allachilik, sabzavotchilik, chorvachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish.

37. Qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining samaradorligi ko‘rsatkichlari tizimi va uni oshirish yo‘nalishlari.

38. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida resurslar sig‘imi va uni kamaytirish yo‘nalishlari.

39. Qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarining o‘zgarishi.

40. Qishloq xo‘jaligida mulkchilik munosabatlarini rivojlanishi va mulkka egalik qilish qarashlarini shakllantirish.

41. Agrar soha tarmoqlarida xususiy mulkchilikning rivojlanishi.

42. Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi turli xo‘jalik subektlari: fermer xo‘jaligi, agrofirma xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi va boshqa xo‘jaliklar o‘rtasidagi nisbat.

43. O‘zbekistonda dehqon xo‘jaliklarining mohiyati, ijtimoiy-iqtisodiy vazifalari va rivojlanish istiqbollari.

44. Fermer va agrofirma xo‘jaligi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi sifatida.

45. Qishloqda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning aholi bandligini oshirishga va qishloq hududlarini rivojlanishiga ta’siri.

46. Qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subektlarning samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari, holati va rivojlantirish yo‘nalishlari.

47. Agrar sohaning istiqbol yo‘nalishlarini belgilashda yer munosabatlarini takomillashtirish zaruriyati. Qishloq xo‘jaligida yer fondidan foydalanishda boshqaruv.

48. Agrar sohada yer va suv resurslarini boshqarish, optimal yer taqsimoti va undan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

49. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni noqishloq xo‘jalik ehtiyojlari uchun ajratishda qishloq xo‘jaligining ustuvorligini ta’minlash mexanizmi.

50. Agrar siyosatni samarali amalga oshirishda yer islohoti va optimal yer taqsimotining o‘rni.

